PARDAYEVA Jumagul
Yunus Rajabiy nomidagi
O‘zbek milliy musiqa san’ati instituti
San’atshunoslik (musiqashunoslik)
ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: jumagul2006.05.12@gmail.com
Tel: +998-94-874-12-05

HABIBULLA RAHIMOV IJODIDA “ARABCHA POEMA KONSERT” ASARINING BADIIY XUSUSIYATLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): PARDAYEVA J. Habibulla Rahimov ijodida “Arabcha poema konsert” asarining badiiy xususiyatlari // Madaniyat ta’limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 42.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek kompozitori Habibulla Rahimov ijodida yaratilgan “Arabcha poema-konsert” asarining shakl, garmoniya, ritm va tembr jihatlaridan tahlil etiladi. Asarning kompozitsion tuzilishi, milliy cholg‘ular orkestri uchun yaratilganligi, arab musiqasiintonatsiyasi va modal tizimlarining o‘zbek musiqiy tafakkuri bilan uyg‘unlashuvi ko‘rsatib beriladi. Tadqiqotda “poema-konsert” janrining o‘ziga xos xususiyatlari, shuningdek, Rahimovning bu janrdagi innovatsion yondashuvi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: *poema-konsert, qashqar rubob, modal lad, arab usuli, monodik faktura, milliy cholg‘ular orkestri, Habibulla Rahimov.*

ПАРДАЕВА Жумагуль
студентка 2 курса направления образования
«Искусствоведение (музыковедение)»
Узбекского национального института музыкального искусства
имени Юнуса Раджаби
E-mail: jumagul2006.05.12@gmail.com
Тел.: +998 94 874 12 05

ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ «АРАБСКАЯ ПОЭМА-КОНЦЕРТ» В ТВОРЧЕСТИВЕ ХАБИБУЛЛЫ РАХИМОВА

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется произведение узбекского композитора Хабибуллы Рахимова «Арабская поэма-концерт» с точки зрения формы, гармонии, ритма и тембра. Рассматриваются композиционная структура произведения, его написание для оркестра народных инструментов, а также

взаимосвязь арабской интонации и ладовой системы с узбекским музыкальным мышлением. В исследовании освещены особенности жанра «поэма-концерт» и инновационный подход Рахимова в рамках данного жанра.

Ключевые слова: *поэма-концерт, кашгарский рубаб, модальный лад, арабский ритм, монодическая фактура, оркестр народных инструментов, Хабибулла Рахимов.*

PARDAYEVA Jumagul
Second-Year Student
Bachelor's Degree Program in **Art Studies (Musicology)**
Yunus Rajabi Uzbek National Institute of Musical Arts
E-mail: jumagul2006.05.12@gmail.com
Tel.: +998 94 874 12 05

ARTISTIC FEATURES OF THE "ARABIC POEM CONCERTO" IN THE WORKS OF HABIBULLA RAHIMOV

ANNOTATION

This article analyzes the work "Arab Poem-Concerto" *by Uzbek composer Habibulla Rahimov in terms of form, harmony, rhythm, and timbre. The study examines the compositional structure of the piece, its creation for an orchestra of national instruments, and the fusion of Arabic intonation and modal systems with Uzbek musical thinking. The research highlights the distinctive features of the "poem-concerto" genre as well as Rahimov's innovative approach within this musical form.*

Keywords: *poem-concerto, Kashgar rubab, modal scale, Arabic rhythm, monodic texture, orchestra of national instruments, Habibulla Rahimov.*

O'zbek professional musiqasida konsert janri XX asrning 40-yillarida shakllana boshladi. G. Mushel, R. Glier, I. Akbarov, B. Gienko, F. Yanovskiy, S. Jalil, R. Abdullaev, N. G'iyosov, A. Ergashev kabi bastakorlarning turli cholg'ular va orkestr uchun yozgan konsertlari bu janrning taraqqiyotida muhim bosqich bo'ldi. Keyinchalik I. Hamroev, M. Bafoev, P. Xoliqov, A. Otajonov, H. Rahimov, A. Xasanov singari bastakorlar milliy cholg'ular orkestri uchun konsert janrida yirik asarlar yaratdilar[1; 167].

Poema esa musiqiy madaniyatga adabiyot orqali kirib kelgan janrlardan bo'lib, XIX asrda Yevropada dastlab simfonik musiqa shaklida, keyinchalik vokal va xor musiqasida keng yoyildi. Poemaga xos erkin shakl, chuqur falsafiy mazmun va dasturiy asos o'zbek kompozitorlik tafakkuriga ham yaqin bo'lib, u milliy musiqadagi epik va lirik ifodaning o'zaro uyg'unligi bilan uyg'unlashgan.

Poema-konsert janri — bu simfonik poema va konsert shaklining sintezidan hosil bo'lgan yangi musiqiy turdir. Unda yakkanavoz cholg'u va orkestr o'rtasidagi

dialog, tasviriylik, emotsional dramatizm va erkin shakliy rivojlanish bir butunlikda mujassam bo‘ladi. An’anaviy uch qismli konsert shaklidan farqli ravishda poemakonsert ko‘pincha bir qismli, ammo ichki kontrast bo‘limlarga ega bo‘ladi.

Bu janr O‘zbekistonda XX asrning o‘rtalarida paydo bo‘lib, B. Gienkoning “Mirzacho‘l” (1953), I. Akbarovning “Shoir xotirasiga” (1954), A. Kozlovskiyning “Hind poemasi” (1955) kabi asarlari orqali rivojlandi. Keyinchalik S. Bofoev (“Segoh”), M. Tojiev (“Shoir muhabbati”) singari bastakorlar poemaga milliylik, lirizm va falsafiy chuqurlik baxsh etdilar.

Habibulla Rahimovning “Arabcha poema-konsert” asari qashqar rubob va xalq cholg‘ulari orkestri uchun yozilgan bo‘lib, u “Sug‘diyona” xalq cholg‘ulari kamer orkestri rahbari, professor Feruza Abdurahimova iltimosiga binoan yaratilgan.[3; 303.] Asar 1 qismli sonata-allegro shaklida, g moll tonalligida, Moderato tempida va 2/4 o‘lchovida yozilgan.

Asarning tematik asosini ikki manba tashkil etadi: arab xalq kuy intonatsiyasi va arab kompozitori Riyod Sanbotiy kuyining fragmentlari. Shu sababli asarda arab modalligi, ritmik xilma-xillik va sharqona dramatizm uyg‘unlashgan.

Kirish qismi 13 takt (8+5)dan iborat bo‘lib, “davriya” shaklida yozilgan. Dastlab torli cholg‘ularning jiddiy, og‘ir ohangi fonida qonun va changning glissando hamda to‘lqinsimon harakati musiqaga ichki dinamik kuch beradi. Davriyaning ikkinchi jumlasi damli (nay, qo‘shnay, klarnet, goboy) va torli (qonun, chang, g‘ijjak, dutor) cholg‘ular orqali berilgan bo‘lib, aynan Riyod Sanbotiy kuyining intonatsiyasi keltiriladi. Bu qismda monodik faktura ustun bo‘lib, modal-ladik o‘zgarishlar (mi♭/mi♮, fa♯/fa♮) arab musiqasiga xos makomiy ohangni ifodalaydi.



Bosh partiya (15–73 taktlar) qashqar rubobning solo kirishidan boshlanadi. Mavzu variatsion rivojlanishga ega bo‘lib, unda arabcha usul (ritmik naqsh) asosiy ritmik negiz sifatida ishlatilgan. Doira jo‘rligida rubobning texnik imkoniyatlari — arpedjio, triol, sekstol va o‘n oltitalik ritmik tuzilmalar orqali ochiladi.

Mavzu turli sozlarda uch marta takrorlanadi: avval rubobda (15–27 taktlar), keyin chang va qonunda (27–38), so‘ng yana rubobda (50–62). G‘ijjaklar sekstol usulida, dutor oilasi esa rezonansli jo‘rlikda qatnashadi.

Yondosh partiya 6-sifrdan boshlanib, nay, qo‘shnay, chang, qonun, afg‘on rubob, dutor, tanbur va g‘ijjaklar oilasi orqali ijro etiladi. Bu bo‘lim lirik, kuychang xarakterda bo‘lib, monodik faktura saqlanadi. Lirik va kuychang arab ohangi avval damli cholg’ular (nay piccolo, nay, qo‘shnay, goboy, klarnet)dan chang, qonun, afg’on rubob, dutor bassda keyin esa g’ijjaklar oilasi dutor alt, tanburda keladi. Dutor kontrabass, dutor alt, tanbur usul vazifasini o‘taydi.

Rivojlov (127-takt, 9-sifr) “meno” tempida boshlanadi. Bu qismda ekspozitsiya materiali kontrast tarzda qayta ishlanadi. O‘lchovlarning tez-tez almashuvi (4/4, 7/4, 6/4, 8/4, 5/4) asarga ichki dramatik harakat beradi. Xromatik gammasimon yurishlar, ayniqsa chang, qonun va rubobda, kulminatsiyani shakllantiradi. Pastki g‘ijjak va kontrabasslar barqaror akkordlar bilan garmonik tayanchni ta’minlaydi.

13 sifr 176 taktdan kadensiya qashqar rubob bilan boshlanadi. Unda qashqar rubob o‘zining barcha musiqiy badiiy xususiyatini ko‘rsatadi masalan mavzuda variatsion va gammasimon harakatlar, turli xil cho‘zim va ritmik bo‘linishlar bilan jadal rivojlanatiriladi va undan so‘ng esa reprizaga o‘tib ketadi.

Kadensiya (176-takt)da qashqar rubobning yakkaxon virtuozligi namoyon bo‘ladi. Bu yerda gammasimon harakat, cho‘zimlar va murakkab ritmik bo‘linishlar orqali kulminatsion cho‘qqi yaratiladi.

Repriza (231-takt, 15-sifr) qisqa, ammo dinamik xarakterga ega. Bosh mavzu kichik oktava registrida kiritilib, raqssimon ohang bilan yangraydi. So‘ng muqaddimadagi arab kuyining allegro tempidagi qaytishi asarni dramatik yakuniga olib keladi.

Asarda ritmik tizim alohida estetik ahamiyatga ega. Kompozitor arab “Wahda kabira” usulidan (4/4, 8/4 o‘lchovda D–TT–DD–TD naqshi bilan) keng foydalangan. Bu ritmik naqsh raqs ohangini yaratadi, dinamik harakatni kuchaytiradi va doira ijrosida jonli ifoda topadi.

Ma’lumki klassik konsert 3 qismli bo‘lib, ular quyidagi tuzilishga ega:

1-qism sonata (allegro)

2-qism menuet (andante)

3-qism rondo, rondo sonata yoki variatsiya (allegro)

bu konsertni esa kompozitor klassik an’analardan chetlashgan xolda 1 qismli shaklida yozgan. Ayan yaxlit 1 qismlilik esa poema xususiyatini yaqqol bir belgisidir. Undan tashqari qashqar rubobning kadensiyada kulminatsiyaga chiqishi, Arab kuyi va kompozitorning tassavuriy obrazi ham uning musiqiy badiiyligini oshirganini ko‘rishimiz mumkin.

Konsertlilik xususiyati:

Temp- allegro, meno, allegro

Solist va orkestrning o‘zaro musiqiy muloqoti- ekspozitsiya va rivojlovda

Yakkaxon ijrochining yuqori darajadagi texnik mahorati – Qashqar rubobning kadensiyadagi kulminatsiyasi

Ekspozitsiya Rivojlov Kadensiya Repriza A B Lavha A

Mavzu rivojlov tamoyili bo‘yicha: o‘zgarib boruvchi mavzu Musiqaning bayon etish turi – ekspozitsion.

Umumiy mavzu fakturasi – monodik.

Bu asarda ritm katta ahamiyatga ega bo‘lib kompozitor uning turli xil bo‘linishlaridan keng foydalangan. Undan tashqari katta cho‘zimlardan mayda cho‘zimlargacha va metrlarning almashinib kelishi asarni yana jozibali bo‘lib chiqishiga turtki bo‘lganini ko‘rishimiz mumkin.

Ladik jihatdan asarda arab tetraxordi (0.5–1.5–0.5 tonli tuzilma)dan faol foydalanilgan. Bu xususiyat muqaddimadan boshlab 20-sifrgacha bo‘lgan qismlarda intonatsion asosni belgilaydi.

Faktura jihatidan asar monodik bo‘lib, garmoniyani asosan parallel interval va rezonansli jo‘rliklar hosil qiladi. Bu esa xalq cholg‘ulari orkestriga xos tembr uyg‘unligini mustahkamlaydi.

“Arabcha poema-konsert” — Habibulla Rahimov ijodida milliylik va jahon musiqiy tajribasining sintezidir. Unda Sharq ohangdorligi, arab modalligi va o‘zbek cholg‘u maktabiga xos lirizm uyg‘unlashgan. Kompozitor klassik uch qismli konsert an’anasidan voz kechib, bir qismlilikni tanlashi orqali poemaviy yaxlitlikni yaratadi.

Asarda:

- yakkanavoz va orkestr o‘rtasidagi muloqot ekspozitsiya va rivojlovda ifodalanadi;
- qashqar rubob kadensiyada texnik mahorat cho‘qqisiga chiqadi;
- ritmik o‘zgarishlar musiqiy dramaturgiyani harakatda ushlab turadi.

Habibulla Rahimovning “Arabcha poema-konsert” asari o‘zbek kompozitorlik ijodida poema-konsert janrining yuksak namunasi sifatida e’tirof etiladi. Asar shakily jihatdan sonata tamoyillariga tayanib, poema erkinligini o‘zida mujassam etadi. Qashqar rubobning virtuoz imkoniyatlari, arab modal tizimi va milliy orkestr tembr boyligi o‘zaro uyg‘unlashib, asarga betakror milliy ruh bag‘ishlaydi.

Bu asar nafaqat milliy cholg‘ular orkestrining ifoda doirasini kengaytirgan, balki O‘zbekiston musiqasida yangi badiiy yo‘nalish — Sharq poema uslubidagi konsert maktabining shakllanishiga zamin yaratgan yirik badiiy hodisa sifatida qadrlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy entsiklopediyasi V tom. Toshkent 2003.

2. Jabborov A., Begmatov S., Azamova M. O‘zbek musiqa tarixi. Toshkent: O‘zbekiston davlat konservatoriyasi, 2018.

3. Жабборов А. Ўзбекистон композиторлари, бастакорлари ва мусиқашунослари: маълумотнома. — Тошкент, 2018.